

## TERMIZ SHAHRIDA MAVJUD BO‘LGAN AVTOBUS BEKATLARINING TAHLILI

**Qurbonazarov Shavkat Abduraximovich**

Termiz muhandislik-texnologiya instituti assistenti

e-mail: [qurbonazarov@tiet.uz](mailto:qurbonazarov@tiet.uz)

**Choriyev Bekzod Urazovich**

Termiz muhandislik-texnologiya instituti stajyor-o‘qituvchisi

e-mail: [bekzodchoriyev23@gmail.com](mailto:bekzodchoriyev23@gmail.com)

**Sharifova Nargiza Djurayevna**

Termiz muhandislik-texnologiya instituti assistenti

e-mail: [nargizasharipova439@gmail.com](mailto:nargizasharipova439@gmail.com)

**ANNOTATSIYA:** Shahar sharoitida avtobus bekatlarining ahamiyati juda katta. Chunki shahar aholisining asosiy qismi aynan avtobus va mikroavtobuslardan foydalanishadi. Bugungi kunda avtobus bekatlarining jihozlanganlik darajasi hamda yo‘lovchilar uchun qulaylik darajasini o‘rganish muhim ko‘rsatkichlardan biri bo‘lib kelmoqda. Ushbu maqolada hozirgi kunda Termiz shahrida mavjud bo‘gan avtobus bekatlari eksperimental tahlil qilingan. Shu bilan bir qatorda avtobus bekatlarini joylashtirish va jihozlash to‘g‘risida me‘yoriy qoidalar va tavsiyalar berib o‘tildi.

**Kalit so‘zlar:** Avtobus, bekat, yo‘lovchi, pandus, perron.

**ABSTRACT:** Bus stops are very important in urban conditions. Because the majority of city residents use buses and minibuses. Today, studying the level of equipment of bus stops and the level of comfort for passengers is one of the important indicators. In this article, there is an experimental analysis of the currently existing bus stops in the city of Termiz. In addition, normative rules and recommendations were given on the location and equipment of bus stops.

**Key words:** Bus, station, passenger, ramp, platform.

**KIRISH:** Jamoat transporti har qanday zamonaviy shaharni rivojlantirishning asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Shahar aholisining turmush darajasi va qulayligiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Respublikamiz janubida joylashgan tarixiy va chiroyli shaharlardan biri bo‘lgan Termiz shahri yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha rivojlanayotgan tizimga ega. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi” 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” ning 36-maqсадiga muvofiq amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar jamoat transportining har jihatdan yanada qulay bo‘lishiga xizmat qilmoqda[1].

**TADQIQOT METODOLOGIYASI:** Bugungi kunga kelib avtobus bekatlarining har xil turlari paydo bo‘lmoqda. Butun dunyo bo‘ylab aholi sonining ortishi va yo‘lovchilar sonining ko‘payishi bu inshootlarning sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilash hamda yo‘lovchilarga qulay va xavfsiz sharoitlarni yaratib berishni talab etmoqda [2].

Shahar sharoitida avtobus bekatlarini eng qulay va zamonaviy ko‘rinishda joylashtirish hozirgi kunning muhim talabi hisoblanadi. Avtobus bekatlari shahar ko‘chasida harakatlanayotgan transport vositalariga noqulaylik va xavf tug‘dirmasligi lozim. Chunki avtobus bekatlari mintaqasi asosan transport vositalari va piyodalar gavjum bo‘lgan hudud hisoblanadi [2].



1-rasm. Avtobus bekatlari joylashadigan hududlar  
 Avtobus bekatlarining o'lchami avtomobil yo'lining toifasi va bir vaqtda to'xtaydigan avtobuslarning soniga bog'liq.

| Yo'l toifasi                            | I    | II   | III | IV  | V   |
|---|------|------|-----|-----|-----|
| To'xtash maydonchasining kengligi, m    | 3.75 | 3.75 | 3.5 | 3.0 | 3.0 |
| Bir vaqtda to'xtaydigan avtobuslar soni | 1    | 2    | 3   |     |     |
| To'xtash maydonchasining uzunligi, m    | 10   | 25   | 35  |     |     |

1-jadval. Bekatlar o'rnatilishi uchun qabul qilingan me'yoriy qiymatlar

1-a I toifa avtomobil yo'llaridagi to'xtash maydonchalari yo'l qoplamasining chetki qismida joylashadi hamda qatnov qismidan ajratiladi. 1-b II va III toifa avtomobil yo'llarida to'xtash maydonchasi asosiy harakat yo'laklaridan kengligi 3,75 m, uzunligi esa ikki tomoniga kamida 20 metrdan bo'lgan ajratish yo'lagi bilan ajratiladi. IV va V toifa yo'llarda to'xtash maydonchasi asosiy harakat yo'laklaridan uzluksiz belgilash chizig'i bilan ajratiladi. Avtobus bekatlarining yo'lovchilar chiqadigan zonasiga perron (chiqarish maydonchasi)ning uzunligi chiqarish postlarining soniga bog'liq bo'lib, bir vaqtda to'xtaydigan avtobuslar miqdoriga qarab aniqlanadi. Bitta chiqarish postiga perron uzunligi kamida 10m, kengligi esa 2m qilib belgilanadi. Perron to'xtash maydonchasining yuzasidan 0,2m ko'tarilib turishi hamda bordyur bilan o'ralgan bo'lishi kerak. Perronlarning qoplamasi qattiq bo'ladi [3].

**TAXLIL NATIJALARI** Jamoat transportiga bo'lgan talab kunning tig'iz paytlariga (peak vaqtlarga) to'g'ri keladi. Asosan, ishga hamda o'qishga borish va qaytish vaqtlari. Tabiiyki inson kun davomida ma'lum bir vazifa va funksiyalarni bajarish davomida energiya sarf etadi va bu ularda charchoq hissi paydo bo'lishiga olib keladi. Avtobus bekatlarini to'g'ri tashkil etishning asosiy maqsadlaridan biri kutish vaqtlarini qisqartirish va yo'lovchilar uchun qulayliklar yaratishdir. Bekatlar nafaqat yo'lovchilar uchun, shu bilan bir qatorda haydovchilar uchun ham qulay va xavfsiz bo'lishi kerak. Ammo bu sohada ham bir qancha kamchilik va nuqsonlar bor. Avtobus bekatlari muammosi nafaqat poytaxt aholisi, balki respublika hududlari aholisi uchun ham eng dolzarb muammolardan biri bo'lib kelmoqda.

Bugungi kunda Termiz shahrida mavjud bo‘lgan avtobus bekatlarining holatini o‘rganish davomida aksariyat bekatlarda yo‘lovchilar uchun yetarli kutish joylarning mavjud emasligi aniqlandi. Shuningdek, ba’zi bekatlarda kunning issiq va sovuq paytlarida sovutish va isitish tizimlarining yo‘qligi ham kuzatildi. Bundan tashqari diqqatga sazavor joylar avtobus bekatlari bilan to‘liq qamrab olinmagan va ayrim bekatlar orasidagi masofa sezilarli darajada uzoq. Qolaversa zamonaviy avtobus bekatlarining yana bir muhim muammolardan biri – nogironlar aravachasi uchun panduslarning mavjud emasligi. Bu o‘z navbatida yo‘lovchilar uchun bir qancha noqulayliklar olib keladi va jamoat transportidan foydalanish ko‘rsatkichini sezilarli darajada pasaytiradi.



## 2-rasm. Termiz shahri 5-kichik daha “Alpomish mahallasi”

Ushbu hududda Termiz shahridagi yirik maktablardan biri bo‘lgan 13-umumiy o‘rta ta’lim maktabi joylashgan, ammo avtobus bekatlari o‘rnatilmagan.



**3-rasm Ro‘zi Choriyev nomidagi ixtisoslashtirilgan san‘at maktabi yonida tashkil etilgan bekat.**  
Ushbu bekat to‘liq jihozlanmagan



#### **4-rasm Termiz davlat pedagogika instituti bekati**

Ushbu bekatda yo‘lovchilar kunning issiq va sovuq paytlarida bir qancha noqulayliklarga duch kelishadi. Bundan tashqari o‘rindiqlarning ahvoli ham qoniqarli darajada emas. Bu kabi noqulayliklar jamoat transporti nufuziga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin.

Hozirgi kunda bekatlarimiz o‘z funksiyasini qisman yo‘qotgan. Yuqoridagi rasmlarda shuni ko‘rish mumkinki, zamonaviy bekatlarga xos bo‘lgan talablarning ba‘zilari mavjud emas. Hattoki yo‘nalishli avtobuslarning qatnov grafigi bilan ham jihozlanmagan. Termiz shahrida jamoat transportidan foydalanayotgan aksariyat yo‘lovchilar boshqa tumanlardan kelgan talabalar. Bundan tashqari ushbu hududga chet ellik sayyohlarning tashrif buyurishi ham sezilarli darajada ko‘paygan. Yo‘lovchilar o‘z manziliga tez va oson yetib olishlari uchun bekatlarda bunday grafiklar juda zarur. Yuzaga kelayotgan bu kabi noqulayliklar yo‘lovchilarning etirozi va noroziligiga sabab bo‘lmoqda. Natijada yo‘lovchilar avtobus bekatlariga bormasdan, o‘zlariga qulay bo‘lgan joylarda turib avtobus kutishmoqda.

Bu muammolarni bartaraf etish uchun hozirda mavjud bo‘lgan bekatlarning xizmat faoliyatini yaxshilash, eski namunadagi bekatlarni qayta rekonstruksiya qilish va aholi gavjum bo‘lgan hududlarga yangi bekatlar tashkil etish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Shaharlardagi avtobus bekatlari umumiy texnik talablarga mos ravishda tashkil etilishi kerak. o‘zbekiston Respublikasi Prezidenti PQ-111-sonli qaroriga muvofiq, raqamli texnologiyalarni va innovatsion yondashuvlarni keng qo‘llagan holda transport vositalari harakatini boshqarishning intellektual (“aqli chorraha”, “aqli avtobus” va “aqli bekat”) tizimlarini joriy etish hamda yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash ko‘zda tutilgan[4].

Avtobus bekatlarini qayta rekonstruksiya qilishda yo‘lovchilar uchun quyidagi zarur jihozlar va qulay sharoitlarni yaratish, ushbu sohaning rivojlanishiga olib kelishi mumkin.

- Yumshoq o‘rindiqlar;
- Qatnov grafigi;
- Bankomatlar;
- Wi-fi tarmog‘i;
- Chiqindi idishlari;
- OAV (gazetalar, jurnallar)
- Telefon uchun zaryadlash moslamalari;
- Sovutish va isitish tizimi;
- Bepul toza ichimlik suvi.

#### **5-rasm. Nogironligi bo‘lgan yo‘lovchilar uchun o‘rnatilgan pandus**



6-7-rasmlar. Taklif etilayotgan yangi namunadagi avtobus bekatlari



**XULOSA:** Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bugungi kunda aholining jamoat transporti xizmatiga bo'lgan talabi kundan-kunga kuchayib borayotgan bir davrda avtobuslarning yo'nalishdagi qatnovlar sonini belgilangan reja bo'yicha bajarilishi va harakat muntazamligini ta'minlash uchun avtobus bekatlarini to'g'ri tashkil etish va ularni takomillashtirish talab etilmoqda. Shuningdek, yo'lovchilar oqimi va ov-havo ko'rsatkichlarini hisobga olgan holda avtobus bekatlarini loyihalash jamoat transporti faoliyatida dolzarb masala bo'lib kelmoqda. Bu ko'rsatkichlarni yaxshilash orqali aholining jamoat transportidan foydalanish ko'rsatkichlarini oshirish mumkin. Shuning uchun yo'lovchilar uchun avtobus bekatlarida qulay shart-sharoitlar yaratilishi zarur.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni
2. Sheraliyevich P. B., Urazovich C. B. Shahar Aholisini Jamoat Transportida Tashishda Harakat Muntazamligini Oshirish Yo'llari (Termiz Shahar 15-Yo'nalishli Avtobus Misolida) //Open Academia: Journal of Scholarly Research. – 2024. – T. 2. – №. 2. – C. 35-38.
3. Normuhammadov A.A.: Avtobus bekatlarining transport oqimining rejimiga va harakat xavfsizligiga ta'sirini tadqiq qilish nomli dissertatsiyasi / prof. K.X.Azizov raxbarligida. - "TAYLKEK", 2019-101 b
4. Prezidenti PQ-111-sonli qarori <https://lex.uz/docs/-246740#-388254>
5. Sheraliyevich P. B., Chori o'g'li X. A. HAYDOVCHILAR, YO'LOVCHILAR VA PIYODALARNING YO'LLARDA YURISH MA'DANIYATI //Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies. – 2024. – T. 3. – №. 2. – C. 30-34.



6. Amonovich U. I., Kuziyev A. U., Shamsutdin o'g'li M. A. YO 'LOVCHILARNI SHAHARLARARO TASHISHNI TASHKIL ETISHDA SAMARALI TEXNOLOGIYALARNI ISHLAB CHIQISH //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 24. – №. 2. – С. 109-113.

WorldlyKnowledge.uz